

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR
ASOSIDA INGLIZ TILINI O'QITISH AHAMIYATI**

Moydinova Elmira Kamariddinovna

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

p.f.f.d., PhD katta o'qituvchisi

Tel: +998900292535

e-mail: mirlife645@gmail.com

DOI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14269903>

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif raqamli texnologiyalardan globallashuv sharoitida keng foydalanish ahamiyatli ekanligini talqin qiladi. Ta'limni rivojlantirishda multimediya, raqamli va innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, maqolaning maqsadi o'qituvchilar o'quv jarayonini amalga oshirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishi maqsadga muvofiqligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ingliz tili, globallashuv sharoit, innovatsion texnologiyalar, multimediya va raqamli texnologiyalar.

Oliy ta'limning maqsad va vazifalari mehnat bozori va jamiyatning bo'lajak chet tili o'qituvchilariga bo'lgan talablariga binoan oldindan belgilanadi va nafaqat asosiy bilim, mahorat, ko'nikma va munosabatlarni, balki o'z navbatida yangi axborot-kommunikatsiya, raqamli texnologiyalari sohasida yangi bilimlarni o'zlashtirishni ham taqozo qiladi. Shu munosabat bilan oliy ta'lim uchun kasbiy va ilmiy-tadqiqot faoliyatini modellashtirish jarayoni birinchi o'ringa chiqadi.

Bugungi kunda, ko'pchilik tadqiqotchilar multimediya va raqamli texnologiyalar ulkan didaktik va uslubiy salohiyatga ega ekanligini e'tirof etishgan. Shu jumladan, olim I.M. Tuxtasinovning ilmiy ishlarida ham o'quv jarayonida bo'lajak mutaxassislarga multimediya texnologiyalarini o'rgatish usullari o'z aksini topgan bo'lib, unda tarjimaning zamonaviy tizimlarini ishlatishda multimediya texnologiyalardan mohirona foydalanish hamda tarjima xotirasi tizimini o'rgatadigan bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash lozimligi ta'kidlangan [7; 55].

Chet ellik olimlar Meri Kalansis (Mary Kalantzis) va Uilyam Koup (William Cope) o'zlarining maqolalarida raqamli va global hayot tarziga tobora ko'proq sho'ng'ib borayotgan o'quvchilarning shaxsiyatiga ta'sir qiladigan o'quv muhitini yaratish vazifasi ham birdek muhim ekanligi haqidagi qiziqarli farazni ilgari surdilar [2; 38-93]. Shunday qilib, o'quv jarayonini tubdan o'zgartirish zarurati kelib chiqadi, bunda o'rganuvchilarning roli passiv ta'lim obyektlaridan mustaqil ravishda kerakli

bilimlarni olishga va mustaqil o'qish faoliyatini samarali tashkil etishga qodir bo'lgan intensiv subyektlarga, shuningdek, o'qishni tugatgandan keyin ham o'zgaradi.

Raqamli texnologiyalar qatorida internet texnologiyalarining ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Shunga ko'ra, T.Yu. Sokolovanning ta'kidlashicha, internet texnologiyalaridan foydalanish quyidagilarni ta'minlaydi: talabalar uchun qo'shimcha ta'lim xizmatlari, o'qituvchilarning malakasini oshirishda masofaviy ta'lim olishlari, yangi tashkiliy shakllar va o'qitish usullari, o'quvchilar uchun qo'shimcha ta'lim xizmatlaridir [5].

Internet har doim ham ta'lim xarakteriga ega bo'lmagan cheksiz miqdordagi tez o'zgaruvchan ma'lumotlarni taqdim etadi, shuning uchun xorijiy tillarni o'qitish jarayonida raqamli texnologiyalaridan foydalanishning hozirgi bosqichida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini har tomonlama shakllantirishga qaratilgan ta'lim internet (veb)-resurslari asosida ingliz tilini o'qitishning yangi usullarini yaratish zarurati tug'ildi.

“Resurs” tushunchasi rus tilining lug'atiga muvofiq “biror narsaning zaxiralari, manbalari”, deb talqin qilinadi [3].

O.Ye. Fayevsovaning “Chet tilini o'rganishda internet resurslaridan foydalanishning didaktik jihatlari” nomli dissertatsiya ishida “Internet resurslari” kompyuter tarmog'ida joylashgan va mantiqiy to'ldirilgan audio yozuvlar yoki fayllar ko'rinishida mavjud bo'lgan axborot ma'lumotlar bazasi sifatida qaraladi [1]. Muallifning qayd etishicha, fayllar ikki toifaga bo'linadi: birinchisi bajariladigan dasturlar, ikkinchisi har xil turdagi ma'lumotlarni (matn, grafik, audio va video) o'z ichiga olgan fayllar.

Shartli ravishda jamiyatni axborotlashtirishning to'rtinchi bosqichi 2001-yilda Veb 2.0 texnologiyalarining paydo bo'lishi bilan boshlanadi. To'rtinchi bosqich ijtimoiy-axborot xarakteriga ega. Ushbu tizim foydalanuvchilarning internet tarmog'ini yaratish va to'ldirishda faol ishtirok etishni ko'zda tutadi, holbuki, avvalgi foydalanuvchilar passiv rolni bajarishgan. Veb 2.0 texnologiyalari inson omiliga asoslanadi. U insonning ijtimoiy, kommunikativ va shaxsiy xohish-istaklari natijasidir. Har bir foydalanuvchi professionallar bilan baravar ishtirok etadi, chunki u mahsulotga o'zgartirishlar kiritishga qodir. Veb 2.0 texnologiyalari internet tarmog'ining global ongini boshqarishda demokratiyaviyligi bilan ajralib turadi. Shundan kelib chiqib, AKTni ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiyalash shartlarini aniqlash zarur.

Asosiy ta'rif sifatida P.V. Sisoyevning quyidagi fikrlaridan foydalanamiz: “Ta'lim internet-resurslari – bu chet tili kommunikativ kompetensiyasini

shakllantirish va talabalarning ma'lumotni qidirish, tahlil qilish, tasniflash va umumlashtirish orqali kommunikativ-kognitiv ko'nikmalarini takomillashtirishga qaratilgan turli xil mavzulardagi matn, audio va vizual materiallardir" [6; 42]. Tadqiqot ishimizning keyingi o'rinlarida ta'lim veb-resurslari, deya qo'llaymiz.

Veb-resurslar o'zi juda xilma-xildir, ammo global miqyosda ularni *axborot, aloqa va ta'lim resurslariga* bo'lish mumkin. Ta'lim resurslari talabalarning ta'lim muammolarini hal qilishda internet tarmog'ining axborot maydonida o'z yo'nalishini topishni o'rganishlari uchun yaratilgan. Axborot veb-resurslari bo'yicha shu kunga qadar juda ko'p ishlar amalga oshirilgan (L.V. Panchenko, O.Ye. Fayevsoba, Yu.N. Veryovkina-Raxalskaya va boshqalar. Shunga ko'ra, L.V. Panchenkoning tadqiqotida Internetning axborot resurslari bilan ishlash jarayonida talabalar katta hajmdagi ma'lumotlar va gipermatn formatlaridan foydalanishlari haqida batafsil ochib berilgan [4; 92]. Axborot veb-resurslari bilan ishlash jarayonida talabalar katta hajmdagi ma'lumotlarni qidirishlari va yuqorida aytib o'tilganidek, ma'lumotlar gipermatn formatida taqdim etiladi, shuning uchun tavsiya etilgan havoladan foydalangan holda har safar berilgan materiallarni vaqt ketkazib o'qib o'tirmasligi uchun sarlavha yoki asosiy mazmunning qisqacha parchasi bo'yicha matnning mazmunini taxmin qilishlari qulay bo'ladi. Bu usul yordamida olmoqchi bo'lgan yirik hajmdagi ma'lumotning hammasini o'qimay turib, mazmunini oldindan anglay olish qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin bo'ladi. Axborot veb-resurslari va internet xizmatlari bilan ishlash o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shuning uchun tizimli o'quv kursini boshlashdan oldin talabalarni internet qidiruv tizimlari bilan tanishtirish zarur.

Demak, axborot veb-resurslari dunyoning istalgan tilida istalgan mavzudagi matn, audio va vizual ma'lumotlarni qamrab oladi. Ta'lim veb-resurslari esa o'quv jarayonida ma'lum bir fan yoki maqsad bo'yicha shakllantirishga qaratilgan bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o'qitish jarayonida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchilarga, shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarga o'zlarining ijodiy g'oyalarini amalga oshirish, tajriba almashish va individual o'quv rejasini tanlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Faevcova O.E. Didakticheskie aspekty ispol'zovanija internet-resursov pri izuchenii inostrannogo jazyka: Diss. ... kand. ped.nauk. – Kursk, 2006. – 208 s.
2. Kalantzis M., Cope B. Designs for learning // E-Learning and digital media. – 2004. – Vol. 1. – №. 1. – P. 38-93.
3. Ozhegov S.I., Shvedova N.Ju. Tolkovyj slovar' russkogo jazyka. – 1999. – 297 s.

4. Panchenko L.V. Metodika formirovaniya u studentov inojazychnoj sociokul'turnoj kompetencii na osnove Internet-resursov: anglijskij jazyk, specializirovannyj vuz: Dis. ... kand. ped. nauk. – M., 2012. – 235 s.
5. Sokolova T.Ju. Teorija i metodika obuchenija rabote v seti Internet: (Na primere podgotovki prepodavatelja informatiki, metodista-organizatora PIT): Dis... kand. ped. nauk. – SPb., 1999. – 187 s.
6. Sysoev P.V., Evstigneev, M.N. Metodika obuchenija inostrannomu jazyku s ispol'zovaniem novyh informacionno-kommunikacionnyh Internet-tehnologij. – M.: Feniks, 2010. – 180 s.
7. Tuxtasinov I.M. Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish: Ped. fan. dok. ... dis. – Toshkent: O'zDJTU, 2018. – 203 b.